

## Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup>

2026- yil yanvar-fevral


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimidarivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026-yil yanvar-fevral oyida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **11 168,4** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,1** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **2 095,6** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2025- yil yanvar-fevral oyida xizmatlar hajmi 9 072,8 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 114,2 % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan (**2 211,2** ming so'm) 2026- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **458,2** ming so'mga yoki **113,8** % ga o'sib, **2 669,4** ming so'mni tashkil etgan.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 242,0** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **73,8** % ini, jumladan, **42,1** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2025- yil yanvar-fevral oyi hajmi va 2026- yil yanvar-fevral oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



## II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2026- yil yanvar-fevral

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>11 168,4</b>	<b>100,0</b>	<b>116,1</b>
Farg'ona shahar	2 081,2	18,6	119,3
Qo'qon shahar	999,6	9,0	117,5
Quvasoy shahar	169,5	1,5	121,0
Marg'ilon shahar	639,8	5,7	117,0
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq tumani	374,1	3,3	118,0
Qo'shtepa tumani	200,3	1,8	113,0
Bag'dod tumani	180,9	1,6	112,0
Buvayda tumani	344,6	3,1	110,0
Beshariq tumani	205,3	1,8	114,1
Quva tumani	215,5	1,9	113,3
Uchko'prik tumani	317,6	2,8	113,1
Rishton tumani	225,3	2,0	116,5
So'x tumani	109,3	1,0	117,1
Toshloq tumani	233,1	2,1	116,2
O'zbekiston tumani	199,5	1,8	116,4
Farg'ona tumani	254,0	2,3	116,3
Dang'ara tumani	188,1	1,7	116,9
Furqat tumani	136,3	1,2	116,1
Yozyovon tumani	181,0	1,6	118,0

### Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

Farg'ona shahrining yuqori ulushi (**18,6%**) Farg'ona shahri davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Farg'ona shahri rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

## III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada

qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **13,3 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissassi **0,6** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **14,8 %** ga (o'sishiga hissassi **2,5** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **13,4 %** ga (o'sishiga hissassi **3,7** band), savdo xizmatlari **17,7 %** ga (o'sishiga hissassi **3,1** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **13,3 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissassi **0,6** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **13,3 %** ga (o'sishiga hissassi **0,1** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

*Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-fevral)*

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y	2026- y	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>9 072,8</b>	<b>11 168,4</b>	<b>116,1</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	412,6	518,0	113,3
moliyaviy xizmatlar	1 189,0	1 505,2	125,1
transport xizmatlari	1 573,3	1 905,4	114,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 418,9	1 690,4	113,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 504,2	3 110,1	113,4
savdo xizmatlari	1 604,2	1 973,8	117,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	154,7	179,3	113,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	317,5	413,1	128,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	196,9	241,9	113,3
ijara xizmatlari	128,3	145,0	104,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	218,6	250,8	110,5
shaxsiy xizmatlar	336,4	403,5	110,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	52,7	61,4	108,2
boshqa xizmatlar	384,4	460,9	112,3

**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**


[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026- yil yanvar-fevral oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida transport xizmatlari **17,1 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,8 %**, moliyaviy xizmatlar **13,5 %**, savdo xizmatlari **17,7 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,6 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,7 %** ulushini tashkil etdi.

*Taqqoslash uchun: 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida transport xizmatlari **17,3** foiz, yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,6** foiz, moliyaviy*

xizmatlar **13,1 foiz**, savdo xizmatlari **17,7 foiz**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,5 foiz**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,5 foiz** ulushni tashkil etgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi  
2026- yil yanvar-fevral, %



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **60,9 foizni** tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa **101,2 foizga** o'sgan.

2026- yilning yanvar-fevral oylida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarda** o'sish kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi **311,4 mlrd so'mga** yoki **128,4 foizga** o'sishi kuzatilgan.

Sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati  
dinamikasi





2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (155,6 %)**, **pochta va kuryerlik xizmatlari (109,3 %)** xizmatlarida yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **97,8 %** ni tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-fevral oyida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **113,6 %** ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Oylik xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlari (ro'yxat) bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmat ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyektiga bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lovlar yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.



## V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

---

**Chiqarish uchun javobgar:**  
Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi

**Manzil:** 150103, Farg'ona shahri,  
Oq yo'l ko'chasi, 104 A-uy  
**Pochta:** fer@stat.uz  
**Tel.:** 73-241-98-82 (61)

